



# RAQOBATBARDOSH MINTAQA SHAKLLANTIRISHDA INNOVATS

Panjiyeva Nodira  
Normaxmatovna

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## Annotatsiya

Maqolada innovatsion-investitsion model mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya jalb qilish va ulardan samarali foydalanish hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, investitsiya faolligi infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish orqali mintaqaning iqtisodiy o'sishi jadallashtirilishi mumkin. Porterning raqobat ustunliklari rombi modeli asosida mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi. Maqolada investitsiyalarni samarali boshqarish, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar va innovatsion-investitsion strategiyaning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

## Kalit so'zlar

investitsiyalar, innovatsion-investitsion model, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, investitsiya muhit, Porter modeli.

*Jahonda ichki va tashqi investitsiyalardan samarali foydalanish, ularni jalb yetish bilan birga investitsiya samaradorligiga ta'sir yetuvchi omillarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Investitsiyalarning qisqarishi sharoitida barcha mamlakatlarning ichki investitsion imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llarini izlash juda muhimdir. YUNKTADning "2023 yilgi jahon investitsiyalari to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 12 foizga kamayib, 1,3 trillion dollarga yetdi [1]. Bunday holatda jalb yetilayotgan investitsiyalardan samarali foydalangan holda, mintaqa raqobatbardoshligini oshirishga erishish dolzarb hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mintaqaning an'anaviy rivojlanishidan investitsion va innovatsion modeliga o'tish jarayonini jadallashtirishni taqozo yetadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda dunyoda sohani an'anaviy va investitsiyaviy-innovatsion rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.*

*Jahonda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal yetishda investitsiyalarning rolini keskin oshirish maqsadida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ularda investitsiya resurslarini iqtisodiyot tarmoqlariga faol jalb yetish, ulardan makro- va mikro- darajada foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion investitsiyalarni rag'batlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning yetakchi omiliga aylantirish, innovatsiyalarni faollashtirish bo'yicha iqtisodiy dasturlarni takomillashtirish kabi yo'nalishlarga ustuvorlik berilmoqda.*

*Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda investitsion faollikni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Strategiyaning 26-maqсадida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb yetish choralari ko'rish belgilangan[2]. Shu munosabat bilan investitsiyalardan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish, mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion-investitsion modeldan foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb yetadi.*

*Adabiyotlar tahlili. Mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish va investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha ko'plab xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavjud. Xususan, V. Kapuria-Foreman [3], G. De Vita, K. Kyaw [4], N. Hermes, R. Lensink [4], Glauco de Vita va S. Khine [5] kabi tadqiqotchilar ushbu masalani turli jihatlar bilan o'rganib chiqishgan. Ularning ishlarida investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, innovatsion rivojlanishdagi roli va hududiy farqlarni kamaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*



# IQTISODIYOTINI INNOVATION-INVESTITION YONDASHUV

MDH mamlakatlari olimlari orasida ham bu mavzuga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.V. Bocharov [6], T.S. Kalmykova [7], G.S. Staroverova [8], A.V. Tyurina [9], A.G. Ivashenko [10] kabi tadqiqotchilar investitsiyalarni jalb qilish va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rniga bag'ishlangan ilmiy ishlari bilan mashhur. Ularning tadqiqotlarida investitsion muhitni yaxshilash, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari orasida ham bu yo'nalishda keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, B. Ruzmetov [10], A.V. Vaxobov, G.X. Razikova, Sh.X. Xojibakiyev [11] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari mintaqaviy rivojlanishning kompleks yondashuvini, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini, raqobatbardoshlikni oshirish yo'llarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Ularning ilmiy ishlari mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va investitsiyaviy muhitni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda investitsiyalarning mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan bo'lsa-da, investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish masalalari etarli darajada yoritilmagan. Bugungi kunda investitsiya faoliyatini jadallashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zarurati, investitsiya resurslari darajasi va YAHMGA ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish uchun investitsiyalardan samarali foydalanish zarurati dolzarbdir.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion-investitsion modellarning o'ri va samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy metodlar qo'llanildi. Jumladan, iqtisodiy tahlil, axborot-tahliliy yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli va institutsional yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Jahonda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal yetishda investitsiyalarning rolini keskin oshirish maqsadida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ularda investitsiya resurslarini iqtisodiyot tarmoqlariga faol jalb yetish, ulardan makro- va mikro- darajada foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion investitsiyalarni rag'batlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning yetakchi omiliga aylantirish, innovatsiyalarni faollashtirish bo'yicha iqtisodiy dasturlarni takomillashtirish kabi yo'nalishlarga ustuvorlik berilmoqda. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning samarali strategiyasi iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini ta'minlashda sarmoyalarni faollashtirishning yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqilishiga asoslanadi. Mintaqaviy raqobatbardoshligi asoslarini tadqiq etgan M.Porterning fikricha "jahon iqtisodiyoti va raqobatbardoshligini barqaror ustunliklari muayyan mamlakat yoki mintaqadagi ixtisoslashgan kasbiy malakalar va bilimlar, institutlar, raqiblar, o'zaro bog'liq holdagi iqtisodiy faoliyat turlari iste'molchilarni o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keladi" [12]. Mintaqaviy tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy- texnik, siyosiy jabhalari bir-biriga yaqin hamda yagona boshqaruv va logistika tizimiga ega hududlar majmuasidir. Mintaqada raqobat munosabatlarining turlicha ko'rinishlari to'rt (mikro, mezo, makro va mega) darajada namoyon bo'ladi (1-rasm).


Mikro darajada mahsulotlarning aniq bir turlarini ishlab chiqarish korxonalari o'zaro raqobatlashadilar. Mezo darajada hududlar, tarmoqlar, integratsiyalashuvning gorizontial tipiga mansub bo'lgan korxona va firmalarning tarmoq korporativ birlashmalari, klasterlar o'zaro raqobat kurashiga kirishadilar. Makro darajada integratsion aloqalarning tarmoqlar aro tipiga mansub bo'lgan ishlab chiqarish majmualari raqobatlashadilar va mega darajada raqobat mamlakatlar darajasiga chiqadi. Mintaqa miqyosidagi investitsiyalarni faollashtirish asosidagi raqobat o'ziga xos jihatlari egaligi bilan ajralib turadi, bunda turli darajadagi subyektlarning gorizontial va vertikal aloqalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu xil aloqalar ba'zida shiddatli raqobat tusini olsa, ba'zi hollarda esa hamkorlik va sherikchilik ko'rinishini oladi hamda tarmoqlararo hududiy klasterlarning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijasida, iqtisodiyot tarmoqlarini mintaqada raqobatbardoshlik ustunliklari omillari uchun M.Porterni raqobat ustunliklari rombi modeli tuzildi (2-rasm).

1-rasm. Mintaqa iqtisodiy tizimida raqobatning o'zaro bog'liqlik aloqalarining konseptual modeli<sup>35</sup>



Mintaqa iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligi M.Porterning raqobat ustunliklari rombini tashkil etuvchi to'rtta o'zaro bog'liq bo'lgan omillar, determinantlar orqali tadqiq etildi. Birinchi determinant mintaqa iqtisodiy tizimida yaratilgan shart-sharoitlar – malakali kadrlar, ilmiy bilim va texnologiyalar, raqamlashtirilgan bozor infratuzilmasi, investitsiyalarni jadallashtirish hisobiga shakllanadi. Ikkinchi determinantni iqtisodiy (ichki va tashqi) talab tashkil etadi. Bozorda muvaffaqiyatli raqobat kurashiga kirishish uchun yetarli bo'lgan investitsiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish borasida dastlabki rag'batni ta'min etuvchi determinant–iqtisodiy talabning mavjudligi hisoblanadi. Mintaqa raqobatbardoshligini belgilab beruvchi uchinchi determinant sifatida yadro yoki bir-birini qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarning mavjudligi maydonga chiqadi. Raqobatbardoshlik mintaqadagi ishlab chiqarish subyektlari kooperatsiyasi, vertikal va gorizontial integratsiyalashgan tarmoqlarga (klasterlar) to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir.




2-rasm. Mintaqada iqtisodiyot tarmoqlarini raqobatbardoshligi ustunliklarining rombi modeli (M.Porterning raqobat ustunliklari rombi asosidatuzilgan).<sup>36</sup>

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi to'rtinchi determinant hisoblanadi. Tashkil qilish va samarali boshqaruv tizimi investitsiyalarni faollashtirish asosida mintaqada iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mintaqada investitsion faollikni jadallashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasigina iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligi haqida tizimli tasavvurlarni shakllantirishda hamda mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasida raqobatbardoshlikning mazmunini sharhlashda asos vazifasini o'taydi. Raqobatbardoshlikning investitsion faollikka bog'liq jihati mintaqa ekologik-iqtisodiy tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadigan o'ziga xos holatini aks ettiradi. Dissertatsiyada mintaqa iqtisodiy tizimida raqobatning o'zaro bog'liqlik aloqalar mexanizmini konseptual modeli ishlab chiqilgan (3-rasm).



<sup>35</sup>Manba: Muallif ishlanmasi  
<sup>36</sup>Manba: Muallif ishlanmasi

### 3-rasm. Investitsion faollikni jadallashtirish va uning mintaqa raqobatbardoshligi bilan o'zaro aloqalar mexanizmi.<sup>37</sup>



## Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqa raqobatbardoshligini baholashning eng muhim metodologik jihatlari quyidagilardan iborat:

1. *Mintaqa raqobatbardoshligi uning milliy iqtisodiyotda har bir ko'rsatkichlar guruhi bo'yicha tutgan o'rnini aniqlash yo'li bilan baholanadi;*

2. *Mintaqalarni raqobatbardoshlik darajasiga ko'ra farqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar mintaqalarning katta-kichikligi hamda ularda yashaydigan aholi soniga bog'liq bo'lmisligi kerak. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichlar nisbiy kattalikda bo'lishi shart;*

3. *ko'rsatkichlarni mohiyatan ijobiy va salbiy o'zaro baholash imkoniyati ta'minlanishi lozim.*

*Investitsiyalarning samarali boshqarilishi va ularning innovatsion jarayonlarga yo'naltirilishi mintaqa raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.*

**Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiya faolligini jadallashtirish quyidagi asosiy natijalarga olib kelishi mumkin:**

1. *Iqtisodiyot tarmoqlarining o'zaro bog'liqligini oshirish va klaster modelini rivojlantirish;*
2. *Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish;*
3. *Innovatsion-investitsion model asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;*
4. *Mintaqa darajasida raqobatbardoshlikni mustahkamlash va xalqaro bozorda ustunlikka erishish*

**Porterning raqobat ustunliklari rombi modeli asosida mintaqa raqobatbardoshligini oshirish uchun investitsion faollikni jadallashtirishning turli yo'nalishlari belgilandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni samarali jalb qilish va ulardan foydalanish mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.**

## ADABIYOTLAR

1. World Investment Report 2023 | UN Trade and Development (UNCTAD) <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
2. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://strategy.uz/>
3. Vibha Kapuria-Foreman. (2017) Yeconomic Freyedom any Foreign Direyet Investment in developind Cjuntriyes. The Journal of Developind Areas. Vj I.41. nj., p151.
4. De Vita, G., & Kyaw, K. (2009). Growth yeffects of FDI and portfolio investment flows to developing countriyes: A disaggregated analysis by income levels. *Appliyed Yeconomics Letters*, 16(3), 277-283.
5. Hermes N., & Lensink, R. (2003). Foreign direct investment, financial development and yeconomic growth. *Journal of Development Studiyes*, 40 (1), 142-163.
6. Glauco de Vita & Khine S. (2009) Growth yeffects of FDI and portfolio investment flows to developing countriyes: a disaggregated analysis by income levels. *Appliyed Yeconomics Letters*, 16(3), r. 277-283.
7. Бочарев В.В. Инвестиция. Учебник для ВУЗов, Питер 2009-384с.; Есипов В.Е и др.. Коммерческая осенка инвестиций, Учебное пособие. КНОРУС М:2009.-450 с.
8. Калмыкова Т.С. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. МИНФРА -М-2009.-230 с.
9. Староверова Г.С. Экономическая осенка инвестиций. Учебное пособие. 3-визд.-М: КНОРУС, 2010-312 с.
10. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие М: КНОРУС. 2010-208 с.
11. Ивасенко А. Г. Иностраные инвестиции. Учебное пособие-М КНОРУС, 2010-272с.
12. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. С английского Э. Калининой. - М.: Издательство Алпина, 2008